

«Sof» tariflar tizimi

Narxlash

Tarif rejasining nomi	Sof Start	Sof Plus	Sof Extra	Sof 50	Sof 70	Sof 100	Sof 150
Oylik abonent to'lovi	24 000 so'm	40 000 so'm	50 000 so'm	55 000 so'm	75 000 so'm	100 000 so'm	150 000 so'm
Oylik internet-trafik limiti	6 GB	25 GB	18 GB	15 GB	25 GB	35 GB	Cheksiz*
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi qo'ng'iroqlarning oylik limiti	2000	5000	Cheksiz**	Cheksiz**	Cheksiz**	Cheksiz**	Cheksiz**
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi SMSlarning oylik limiti	1000	1000	1500	2500	4000	5000	5000
Limitlarni tekshirish	*100# - daqiqalar va SMSlar, internet-trafik MBlari						

* Barcha yo'nalishlarga trafikning oylik limiti – to'liq tezlikda 100 GB. To'liq tezlikda taqdim etilgan limit tugagandan so'ng, internet tezligi pasayadi va 128 kbit/soniyagacha qilib o'rnatiladi.

** Texnik cheklanma – oyiga 45000 daqiqa.

Yoʻnalishlar boʻyicha narxlash:		
	Sof Start, Sof Plus	Sof Extra, Sof 50, Sof 70, Sof 100
Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qoʻngʻiroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari)	50 soʻm	25 soʻm
1 MB internet narxi	50 soʻm	25 soʻm
Oʻzbekiston boʻyicha chiquvchi SMS narxi (berilgan limitdan tashqari)	50 soʻm	25 soʻm
Xalqaro SMSlar	1500 soʻm	

Limitlarni tekshirish: *100# - daqiqalar, SMSlar va internet-trafik MBlari.

11.05.2023-y.dan eʼtiboran "Sof" tizimi tarif rejalariga ulanish va oʻtish mavjud emas.

Eslatma:

Smartfonlar, standart holatda, mobil trafikni quyidagilarga fon rejimida sarflaydi: tizim va ilovalarni yangilashga; vidjetlar (ob-havo, kalendar va boshqalar) va ijtimoiy tarmoqlar maʼlumotlarini sinxronlashga, hamda analitik-hisoblagichlarga (Google, google-analytics.com, googletagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net). Ushbu holatlarda trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yoʻnalishlar uchun taqdim etiladigan intrenet-toʻplamdan sarflanadi.

31.12.2026 gacha:

- **«Sof» tizimi tarif rejalariga yangi ulanishda yoki boshqa tariflardan oʻtishda, «Sizga qoʻngʻiroq qilishdi» xizmati avtomatik tarzda bepul asosda taqdim etiladi;**
- «Sizga qoʻngʻiroq qilishdi» xizmatiga (oylik va kunlik opsiyada) oldin pulli asosda ulangan abonentlarga mazkur xizmat endi bepul belgilanadi;
- Xizmatni boshqarish *977# USSD-soʻrovi yordamida amalga oshiriladi;
- «Sizga qoʻngʻiroq qilishdi» xizmatining faol pulli (oylik va kunlik) opsiyalari, «Barcha uchun ovoqli pochta» xizmati oʻchiriladi va bepul asosda «Sizga qoʻngʻiroq qilishdi» xizmati belgilanadi.

Qoʻshimcha maʼlumot

1. Oylik abonent toʻlovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:

- Abonentning tarif rejasiga ulanish/oʻtish sanasi oylik davrda oylik abonent toʻlovining yechilish sanasi hisoblanadi.
- Tarif rejasiga yangi ulanishda/oʻtishda, agar abonent hisobida yetarlicha mablagʻ boʻlsa, oylik abonent toʻlovi va limitlar toʻliq hajmda (qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi va belgilanadi.
- Hisob manfiy holatda boʻlsa yoki unda tarif boʻyicha oylik abonent toʻlovining yechilishi uchun mablagʻ yetarli boʻlmasa, u holda abonent toʻlovi yechilmaydi, tarifda belgilangan limitlar belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.
- Oylik abonent toʻlovi tarif rejasi boʻyicha oylik abonent toʻlovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent toʻlovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi boʻyicha abonent toʻlovining soʻnggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi.
- Tarif rejasi doirasida navbatdagi oylik abonent toʻlovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha boʻlgan davrda (yechilish vaqti qatʼiy belgilanmagan) amalga oshadi. Oylik abonent toʻlovining toʻliq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarli miqdorda mablagʻ boʻlishi kerak.

- Agar oylik abonent to'lovining yechilish paytida abonent hisobida oylik abonent to'lovi qiymatidan kam mablag' qolgan bo'lsa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lmaganicha abonent to'lovi yechilmaydi.

- Abonent hisobi abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirilishi bilan oylik abonent to'lovi **darhol** yechiladi. Abonent to'lovi yechilishi bilan abonent raqami Faol holatga o'tadi va tarif rejasi shartlariga muvofiq limitlar belgilanadi. Keyin oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya'ni, tarif rejasi bo'yicha navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi **so'nggi marta samarali yechilgan kundan boshlab** bir oylik oraliqda amalga oshadi.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi (agar oylik abonent to'lovining yechilishi 31-sanada amalga oshgan bo'lsa, keyingi oy esa 30 kunlik bo'lsa, u holda navbatdagi oylik abonent to'lovi 30-sanada, fevral oyining 28/29-sanasida yechiladi. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi o'z vaqtida to'lansa (raqam uzluksiz Faol holatda bo'lib tursa), abonent to'lovining keyingi yechilish sanasi oyning 31-kuni bo'ladi).

2. Bloklanish shartlari:

- Raqam musbat hisob holatida, agar tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi yechilishi paytida hisobda yetarlicha mablag' bo'lmasa, shuningdek manfiy hisob holatida, agar tegishli qo'shimcha xizmatlar ulangan bo'lsa bloklanadi;

- Bloklangan holatda tarif rejasini almashtirish imkoni bo'lmaydi;

- Agar abonent hisobida boshqa ochiq tarif rejasining abonent to'lovini + o'tish qiymatini (agar tarif rejasiga o'tish pullik bo'lsa) yechishga yetarli mablag' bo'lsa, tarif rejasini ruxsat etilgan barcha usullar orqali almashtirish mumkin.

- Bloklangan holatda abonent oldin xarid qilingan oylik internet-to'plamlar limitlarining qoldiqlaridan, toki ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar foydalana oladi (qoldiq mavjud bo'lsa);

- Bloklangan holatda bo'lishning umumiy shartlari bilan [bu yerda](#) tanishish mumkin.

3. Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar joriy davr uchun tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. Tarif rejasi shartlariga ko'ra oylik limitlar belgilangan kundan boshlab 1 oy muddatga taqdim etiladi. Joriy davrda belgilangan oylik limitlarning qoldiqlari faqat abonent to'lovi **o'z vaqtida to'lansagina** navbatdagi bitta davrga ko'chirib o'tkaziladi. Oldingi davrdan ko'chirib o'tkazilgan oylik limitlarning qoldiqlari **faqat** joriy oyning oxirigacha amal qiladi.

- Agarda oylik abonent to'lovi o'z vaqtida yechilmasa, u holda limitlarning oldingi hisob-kitob davrida ishlatilmay qolgan qoldiqlari bekor qilinadi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirishni va tarif rejasi bo'yicha limitlar belgilanganligini *100# USSD-so'rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.

- Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo'ng'iroqlar va SMSlar tarif rejasi shartlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha limitdan tashqari qiymatiga muvofiq narxlanadi.

- Tarif rejasi va qo'shimcha internet-to'plamlar doirasidagi oylik internet-trafik limitlari sarflab tugatilgach, internetga kirish imkoni to'xtatiladi. Bu holatda abonent internetni qayta ishga tushirish uchun havolalik SMS oladi. Internetdan foydalanishni davom ettirish uchun, abonent quyidagi opsiyalardan birini tanlashi va unga muvofiq internetdan foydalanishda davom etishi lozim bo'ladi:

- Tarif bo'yicha limitlarni yangilash («Restart» xizmatini faollashtirish);
- Internet-to'plam xarid qilish;
- 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish*

* Agar abonent 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish opsiyasini tanlasa, keyin Oylik internet-to'plam xarid qilsa, u holda qo'shimcha to'plam limitlari tugaganidan so'ng toki tarif bo'yicha abonent to'lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasi shartlariga muvofiq 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha narxlanadi.

«1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish» opsiyasini abonent *727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.

Internetga kirish cheklangan holatida to'lov ilovalaridan offline rejimida foydalanmoqchi bo'lsa, ularning to'g'ri ishlashi uchun abonent o'z qurilmasida ma'lumot uzatish rejimini o'chirishi lozim.

E'tibor qiling:

- "Sof" tariflar tizimidan boshqa tariflar rejalariga o'tilsa oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun tarif rejasi doirasidagi limitlardan foydalanishdan avval *100#, USSD-so'rovi yoki Ucell mobil ilovasi yordamida limitlar belgilanganligini albatta oldindan tekshirib olishni

so'raymiz. Daqiqalar, SMSlar va MBlar limitlari belgilanguniga qadar narxlash limitdan tashqari ko'rsatilgan narxlarda amalga oshiriladi.

4. «Sof» tariflar tizimi abonentlari uchun «Qadrdonlar!» hamda «U+» sodiqlik dasturlari amal qiladi.

5. Tarif rejaları shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar "O'zbektelekom" AKning axborot-ma'lumot xizmatlariga, kontent-provayderlarning axborot-ko'ngilochar xizmatlariga va xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.

5.1 "O'zbektelekom" AK xizmatlari. Narxlash ushbu havoladagi jadvalda ko'rsatilgan narxlar asosida, har bir ulanish uchun amalga oshiriladi: https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom, (limitlar bo'lsa, limitlar sarflanmaydi. Tarif rejasi shartlariga muvofiq limitdan tashqari narx bo'yicha abonent balansidan yechiladi). Qo'ng'iroqning bir daqiqasi sizning tarif rejangizga muvofiq daqiqalab, ulanishning 1-soniyasidan boshlab, to'liq daqiqagacha yaxlitlanib narxlanadi. Abonentlar bu yerda tanishishlari mumkin https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom

6. Tarif rejaları doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

7. «Sof» tariflar tizimi abonentlari uchun «Sizga qo'ng'iroq qilishdi», «Qulay daqiqalar» («Sof Start», «Sof Plus» TRlar uchun), «Raqamni saqlab qolish», Oylik internet-to'plamlar, Metroda Ucell cheksiz internet-to'plamlari (faqat «Cheksiz 30 kun» to'plami), «Internet-sovg'a» xizmatlari, «Al Chiroq» aksiyasi amal qiladi.

8. «Sof» tariflar tizimi abonentlari uchun «Tungi internet», «Kunlik SMS-to'plamlar» shuningdek, "Qadrdonlar!" sodiqlik dasturi doirasidagi «Kunlik SMS-to'plamlar» xizmati, «Soatbay internet» hamda «Maksimal internet» xizmatlari, «Buyurtma to'plam», «Tarmoq ichida qulay» hamda «O'zbekiston bo'yicha qulay» to'plamlari, Kunlik va Haftalik internet-to'plamlar, Oylik 4G internet-to'plamlar, Cheksiz internet-to'plamlar amal qilmaydi.

9. «Sof 150» tarif rejasi abonentlari uchun Oylik internet-to'plamlar, Metroda Ucell cheksiz internet-to'plamlari, «Internet-sovg'a», TAS-IX uchun internet-to'plamlar, «Internet Mega BOOM», «Trafik+», «Tungi internet-to'plamlar» xizmatlari va «Al Chiroq» aksiyasi amal qilmaydi.

10. «Sof» tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, ko'rsatilgan shartlarga ega bo'lgan tarif rejaları doirasida oldin olingan O'zbekiston bo'yicha cheksiz daqiqalar va cheksiz internet amal qilmaydi.

11. Tegishli tarif rejaları doirasida olingan cheksiz shartlar (qo'ng'iroqlar, internet) tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining o'z vaqtida yechilishi holatida, shuningdek, tarif rejasini almashtirganda keyingi oyga ko'chirib o'tkazilmaydi.

12. Internet xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlarga [mablag'larni rezervatsiya qilish tizimi](#) va [4G tarmog'ining ishlash xususiyati haqida qo'shimcha ma'lumot](#) bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.

13. Frod ulanishlarning oldini olish maqsadida, agar ulanishdan keyingi 30 kun davomida chiquvchi trafik 0 ga yaqin bo'lsa, Kompaniya abonent bilan Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

«Restart» xizmatining shartlari

1. «Restart» xizmati *222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi.

2. «Restart» xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.

3. «Restart» xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasi shartlari bo'yicha oylik limitlarni olish imkonini taqdim etadi. «Restart» xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi.

4. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lovi yechiladi va abonentning tarif rejasi oylik abonent to'lovi doirasida to'liq oylik limit belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi.

5. Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovi yechiladi va to'liq hajmda limitlar belgilanadi.

6. «Restart» xizmati muvaffaqiyatli faollashganida, tarif rejasi doirasida oldin belgilangan limitlar (O'zbekiston bo'yicha daqiqalar va MBlar) qoldiqlari bekor qilinadi.

7. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida «Restart» xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.

8. «Restart» xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha) foydalanish mumkin.

Tarifni almashtirish: *120#